

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: "Loyiha menejmenti"		
Fan kodi: LM3504	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):4	davomiyligi: semester 5
Kafedra: Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: Menejment (kimyo va oziq – ovqat sanoati)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Xo'jamurodov Asqar		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar:180	Email: khurshida1212@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Xo'jamurodov Asqar, Rasulova Nargiza Shavkatovna		
Prerekvizitlar:		
<p><i>Fanning qisqacha bayoni:</i> Ushbu fan loyiha boshqaruvining barcha jihatlari bo'yicha tizimli va to'liq bilim olishni ta'minlaydi. Loyihalar tobora zamonaviy biznesning muhim qismiga aylanib bormoqda. Shuning uchun, fan loyiha va tashkilotlarning strategik maqsadlari o'rtasidagi munosabatlarni muhimligini ta'kidlaydi. Fan shuningdek, loyihalarni boshidan oxirigacha muvaffaqiyatli boshqarish uchun zarur bo'lgan texnik, madaniy va shaxslar aro ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Loyihani boshqarish – bu vositalar, bilim va ko'nikmalarning uyg'unligini ta'minlovchi professional boshqaruvdir. Nazariy konsepsiyalar loyihalar turlari va sohalarini qamrab olgan amaliy tadqiqotlar orqali mustahkamlanadi. Fan loyihalarni boshqarishning asosiy tarkibiy qismlari, ya'ni loyiha integratsiyasi, loyiha ko'lamini boshqarish, loyiha vaqti va xarajatlarini boshqarish, sifatni boshqarish, kadrlar hisobi, axborot-kommunikatsiyalar, risklarni va xaridlarni boshqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi.</p>		

Fanning maqsadi– "Loyiha boshqaruvi" fani O'zbekistonda loyiha boshqaruvi tizimining joriy etilishi, boshqaruvning zamonaviy uslublari, loyiha tizimini strategik boshqaruv, biznes-tuzilmaviy loyihalar, tashkilotda loyiha boshqaruvi tizimini tashkil etish, loyiha boshqaruvida vaqt parametrlari, kommunikatsiya, sifat, narx, tavakkalchik(risk), nizolar va inson resurslari hamda innovatsiyalarni joriy etish masalalarining mazmun-mohiyatini tushuntirishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Shuningdek, mavzudan kelib chiqib dars mashg'uloti mehmonxonada sayyor dars tarzida olib boriladi.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	Loyiha boshqaruvi evolyutsiyasi: konsepsiya va tariflar	2	2	6
2	Loyihaning hayotiylik sikli va tarkibi.	2	2	6
3	Tashkiliy tuzilmalar: loyiha ofisi va jamoasi.	2	2	6
4	Rejalashtirish. Kommunikatsiyalar va personalni boshqarish.	2	2	6
5	Loyiha tarkibini boshqarish, WBS.	2	2	6
6	Vaqtning boshqarish va tarmoqli rejalashtirish usullari.	2	2	6
7	Loyiha qiymatini boshqarish. Narx belgilash va baholash.	2	2	6
8	Sifat va risklarni boshqarish.	2	2	6
9	Resurslar va xaridlarni boshqarish	2	2	6
10	Loyihani amalga oshirish, monitoring va nazorat qilish.	2	2	6
11	Loyiha integratsiyasi va o'zgarishlarini boshqarish.	2	2	6
12	Agile PM, PMBoK. Yirik va davlat loyihalari.	2	2	6
Jami		24	24	72

Adabiyotlar

1. Larson, E.W. and Gray, C.F. (2018), Project management the managerial process, Seventh Edition, McGraw-Hill. (Ushbu o'quv qo'llanma institut ARMda PDF variantda mavjud).

2. Harold Kerzner (2009), Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling, 10th ed. (Ushbu o'quv qo'llanma institut ARMda PDF variantda mavjud).

3. Фархутдинов Р.А. Производственный менеджмент. Учебник. Питер. 2008 г. 496 стр.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali

2. www.uza.uz – O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti

3. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti

4. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Juma	10.00 – 12.00	306